XALQ DEPUTATLARI BESHARIQ TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

Beshariq tumani, Oltin vodiy ko‘chasi 160-uy tel (73) 612-20-08

2023 - yil 13 - noyabr VI-93-115-11-153-K/23 Beshariq tumani hokimligi

"LOYIXA"

Tumandagi istirohat bog‘iga nom berish hamda ayrim Mahalla fuqarolar yig‘inlarining nomini o‘zgartirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yildagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash sohasidagi davlat siyosatini yanada takomillashtirish hamda samarali amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan, Xalq deputatlari Beshariq tuman Kengashi

QAROR QILADI

1.O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining **2023-yil 18-sentabrdagi 1-14/162-sonli** “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasi asos uchun qabul qilinsin.

2.Tumandagi istirohat bog‘iga nom berish hamda 2ta mahalla fuqarolar yig‘inlarining nomlarini o'zgartirish bo‘yicha “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasi” kiritgan takliflari qabul qilinsin.

3.Tumandagi istirohat bog‘ining nomi hamda nomi o‘zgaradigan mavjud

mahalla fuqarolar yig‘ini ro'yxati ilovaga muvofiq tasdiqlash uchun qabul qilinsin.

4.Tuman Statistika bo'limi (F.Davlatov), Kadastr agentligi Farg‘ona viloyat boshqarmasi, Beshariq tuman bo'limi (M.Madaminov), Tuman Qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi (Sh.Tursumatov) hamda tegishli mutasaddi davlat tashkilotlari amaldagi tartibda nom berilgan istirohat bog‘i hamda nomlari o‘zgartirilgan mahalla fuqarolar yig‘inlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazasini shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

5.Tuman Ichki ishlar bo‘limi (R.Maxsudov) nom berilgan va nomlari o‘zgartirilgan joylarda aholining fuqarolik pasportlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, o‘zgartirilgan mahalla fuqarolar yig‘ini muhri va tamg‘asini o‘zgartirish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirilishi yuzasidan zarur chora-tadbirlarni belgilasin.

6.Mahalla fuqarolar yig‘ini raislariga Yo‘l qurilish bo‘limi va Obodonlashtirish boshqarmasi bilan hamkorlikda hududlaridagi nom berilgan hamda nomlari o‘zgartirilgan geografik obyektlar bo‘yicha berilgan takliflar Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlangandan so‘ng ularning nomlari qayd etilgan metall ko‘rsatkichlar o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

7.Belgilansinki, geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni moliyalashtirish mahalliy budjet mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

8.Mazkur qaror Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlangandan so‘ng, tuman “Beshariq tongi” gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9.Mazkur qaror ko‘rib chiqish va amaldagi tartibda munosabat bildirish uchun Xalq deputatlari viloyat Kengashiga yuborilsin.

Tuman hokimi **R.K.Jo'rayev**

Xalq deputatlari Beshariq tuman
Kengashining
2023-yil 13-noyabrdagi
VI-93-115-11-153-K/23-son qaroriga
1-ilova

T/r	**Geografik obyektning turi**	**Geografik obyektning bog‘lanishi**	**Geografik obyektning amaldagi nomi**	**Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif**
1.	Istirohat bog‘i	Hamid Olimjon mahallasi	Nomsiz	**Shodlik**
2.	Mahalla	Beshariq tumani	Dala-Hamid Olimjon	**Hamid Olimjon**
3.	Mahalla	Beshariq tumani	Yangi Qashqar	**Qashqar**